



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRINING BUYRUG'I

Umumiy o'rta ta'lismuassasalarida o'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishlarini tizimli tashkil etish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lism-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son Farmonining 15-band, 2022-yil 11-maydagi PF-134-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022 – 2026-yillarda maktab ta'limi rivojlantirish bo'yicha milliy dasturining 23-band, Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta ta'lismuassasalarining 10-11-sinflari o'quvchilarini kasb-hunarga tayyorlash chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 30-dekabrdagi 792-son qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek, o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlaridan kelib chiqib kelajakda ularning ta'limga davom ettirishlari yoki egallagan kasblari bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullanishlariga shart-sharoitlar yaratish maqsadida buyuraman:

1. Umumiy o'rta ta'lismuassasalarida o'quvchilar o'z iqtidori va qiziqishlariga mos kasbni tanlab olishi, mehnat bozorida munosib o'mini topishi, kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatga erishishi uchun "Kasbga yo'naltirish tizimi" joriy etilsin.
2. Umumiy o'rta ta'lismuassasalarida o'quvchilarni "Kasbga yo'naltirish tizimi"ning ustuvor vazifalari etib quyidagilar belgilansin:

boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'quv rejaga kiritilgan fanlar doirasida mehnat bozorida mavjud bo'lgan turli kasblar to'g'risida tushunchalar berib borish;

o'quvchilarning kasbiy moyilligi bo'yicha o'tkazilgan psixologik-pedagogik diagnostika natijalari asosida kasbga yo'naltirish ishlarini olib borish;

o'quvchilarni zamonaviy kasblar va IT sohasiga yo'naltirish, ularning bilimini oshirish ishlarini samarali tashkil etish;

o'quvchilarni professional ta'lismuassasalariga jalb etish bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish;

o'quvchilarni ikkita xorijiy til va bitta kasb-hunarga o'rgatish amaliyotini bosqichma-bosqich yo'lga qo'yish.

3. Quyidagilar:

umumiy o'rta ta'lismuassasalarida o'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishlarini tizimli tashkil etish bo'yicha kalendar reja 1-ilovaga muvofiq;

umumiy o‘rtta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish ishlarini muvofiqlashtirish va tizimli tashkil etish bo‘yicha ishchi guruh (keyingi o‘rinlarda – ishchi guruh) tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Ishchi guruh (D.Ermatov)ga:

umumiy o‘rtta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish ishlarini muvofiqlashtirish;

o‘quv yili davomida o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish bo‘yicha ustuvor vazifalarning amalga oshirilishida hududlarga ko‘maklashish;

har chorakda hududlarda o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish bo‘yicha seminarlar tashkil etish;

o‘quv yili davomida o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlarni manzilli o‘rganib borish, tahlil qilish va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko‘rish vazifalari topshirilsin.

5. Umumiy o‘rtta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni “Kasbga yo‘naltirish tizimi”ning ustuvor vazifalarini amalga oshirilishini ta’minalashga Qoraqalpog‘iston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlari mas’ul etib belgilansin.

6. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlariga:

umumiy o‘rtta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish bo‘yicha ustuvor vazifalar amalga oshirilishini ta’minalash va bu borada ishchi guruh bilan hamkorlik qilish;

hududdagi barcha umumiy o‘rtta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish ishlarini namunaviy kalendar reja asosida tashkil etilishini ta’minalash va nazorat qilish;

o‘quv yilining har choragida umumiy o‘rtta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar va bu borada yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etish masalalarini kengaytirilgan yig‘ilishlarda muhokama qilib borish;

har chorak yakunida hududda o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar haqida umumlashtirilgan ma’lumotlarni vazirlikning O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish boshqarmasiga taqdim etib borish vazifalari topshirilsin.

7. O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi (L.Gaynutdinova)ga:

joriy yil 25-avgustga qadar umumiy o‘rtta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish ishlarini tizimli tashkil etish bo‘yicha kalendar rejani amalga oshirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

o‘quvchilarining kasbiy moyilligini aniqlash bo‘yicha psixologik-pedagogik diagnostika ishlarini olib borish;

o‘quv yili davomida o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish bo‘yicha maktab psixologlari uchun o‘quv-amaliy seminarlar va trening mashg‘ulotlarini tashkil etish;

har chorak yakunida o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar haqida ma’lumotlarni vazirlikning O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish boshqarmasiga taqdim etib borish vazifalari topshirilsin.

8. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o‘rinbosari U.Begimkulov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



X.Umarova

Toshkent sh.,
2023-yil “14”-avgust,
238-son

O‘zbekiston Respublikasi
 Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
 2023-yil “14”-avgustdagи
 238-sonli buyrug‘iga
 1-ILOVA

**Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarini kasbga yo‘naltirish ishlarini
 tizimli tashkil etish bo‘yicha kalendar reja**

| T/r | Amalga oshiriladigan ishlar | Bajarish muddati | Mas’ullar |
|-----|--|---|--|
| 1. | Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga o‘quv rejaga kiritilgan fanlar doirasida mehnat bozorida mavjud bo‘lgan turli kasblar to‘g‘risida tushunchalar berib borish. | O‘quv yili davomida, dars mashg‘ulotlari jarayonida | Fan o‘qituvchilari |
| 2. | 7-sinf o‘quvchilari uchun “Kasblar olamiga sayohat” mavzusida treninglar (maxsus kurslar) tashkil etish. | har oyda bir marta | Maktab psixologlari, sinf rahbari |
| 3. | 8-sinf o‘quvchilari uchun “Mening kelajakdagi kasbim” mavzusida seminar-trening tashkil etish. | Oktabr, dekabr, fevral, aprel oylarida | Maktab psixologlari, sinf rahbari |
| 4. | 10-11-sinf o‘quvchilari o‘rtasida o‘z faoliyati davomida yuqori natijalarga erishgan kasb egalari bilan uchrashuvlarni tashkil etishni nazarda tutgan holda “Kasb va yoshlar” ochiq muloqot oyligini o‘tkazish | Aprel-may | DMMIBO‘, Maktab psixologlari, sinf rahbari |
| 5. | Kasb egalarining mehnat faoliyati bilan yaqindan tanishish maqsadida 5 - 11-sinf o‘quvchilari uchun turli uchrashuv, ishlab chiqarish korxonalari, hunarmandchilik markazlari va boshqa tashkilotlarga ekskursiyalar tashkil qilish. | O‘quv yili davomida | DMMIBO‘, Maktab psixologlari, sinf rahbari |
| 6. | 7-11-sinf o‘quvchilari o‘rtasida kasbiy moyilligini aniqlash bo‘yicha psixologik-pedagogik diagnostikalarni o‘tkazish va kasb-hunarga bo‘lgan qiziqishini aniqlash. | Oktabr, aprel | Maktab psixologlari, sinf rahbari |
| 7. | 9- va 11-sinf o‘quvchilarini ta’limning keyingi bosqichida o‘qishni davom ettirishini aniqlash bo‘yicha so‘rovnama o‘tkazish. | Mart | Maktab psixologlari, sinf rahbari |
| 8. | 9-sinf o‘quvchilarining kasbiy moyilligi bo‘yicha o‘tkazilgan psixologik-pedagogik diagnostika natijalari asosida kelgusida aniq ishchi kasblar bo‘yicha kasb-hunar maktablarida ta’lim olishi mumkin bo‘lgan o‘quvchilar o‘rtasida kasbga yo‘naltirish ishlarini olib borish. | Noyabr, may | MMIBDO‘, Maktab psixologlari, sinf rahbari |

O‘zbekiston Respublikasi
 Maktabgacha va mактаб та’лими vazirining
 2023-yil “14”-avgustdagи
 238-sonli buyrug‘iga
 2-ILOVA

**Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish
 ishlarini muvofiqlashtirish va tizimli tashkil etish bo‘yicha
 ishchi guruh tarkibi**

| T/r | F.I.Sh | | Lavozimi |
|-----|--------------------------------------|---|---|
| 1. | Begimkulov Uzoqboy Shoimqulovich | - | Vazir o‘rinbosari, ishchi guruh rahbari |
| 2. | Ermatov Doniyor Saitqulovich | - | O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish boshqarmasi boshlig‘i, ishchi guruh rahbari o‘rinbosari |
| 3. | Gaynutdinova Liliya Rifxatovna | - | O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi direktori, ishchi guruh rahbari o‘rinbosari |
| 4. | Mamadaliyev Abdukamol Abduraximovich | - | O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari, a’zo |
| 5. | Kamalov Azamat Jamolovich | - | Ta’lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari, a’zo |
| 6. | Murodov Dilshod Maxramovich | - | O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish boshqarmasi bosh mutaxassis, a’zo |
| 7. | Foziljonov Hayot Muxammadjon o‘g‘li | - | O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi bo‘lim boshlig‘i, a’zo |
| 8. | Lavozimiga ko‘ra | - | Qoraqalpog‘iston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlari, a’zo |